

## RO'ZANI BUZUVCHI AMALLAR

*Matkarimov Hakimboy Shokirovich  
Xorazm viloyati Imom Faxriddin ar-Roziy  
o'rta maxsus bilim yurti Fiqh va Arab tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbuning mazmuni ro'za tutgan kishi nima qilsa ro'zasi qabul bo'lmasligi nimalar qilishi mumkin emasli haqida yoritiladi qaysi holatlarda ro'zasi ochilib ketishi hamda qarz ro'zalar tutishligi haqida.

**Kalit so'zlar:** Makruh, maniy,

Ro'zani buzadigan amallar haqida aytadigan bo'lsak, bular yeb-ichish, ya'ni tanaga ozuqa kirishi hamda oilaviy munosabatlar, ya'ni o'z ahliga yaqinlik qilish. Mana shu ikkala masala ro'zani buzadi, bularga amal qilinmasa insonning ro'zasi qabul bo'lmaydi. Shuningdek, saharlikni kechiktirib vaqtidan o'tkazib yuborish ham bo'lmaydi.

Bilmasdan, xayolidan ko'tarilib yeb-ichib yuborish ham ro'zani ochmaydi, lekin xayoliga ro'zadorligi kelishi bilan yeb-ichishni to'xtatishi kerak. Shu o'rinda bir masala, agar uzri bor holatida ham bir keksa odam ro'za tutsa-yu, parishon bo'lib nimadir yeb-ichayotgan bo'lsa, uni to'xtatish kerak emas deydi, ulamolar. Chunki unga ro'za tutish farz emas, lekin himmat qildi. Ozgina yeb olgan narsasi qari insonga mador bo'ladi. Lekin ro'zadorligini o'zi eslashi bilan to'xtashi kerak bo'ladi.

**Og'izni tish pastasi bilan yuvish masalasi.** O'zi aslida xushbo'ylik ro'zani ochmaydi. Hozirgi ko'p tish pastalari o'ta xushbo'y bo'lib, uning hidi dimoqqa urilib insonga rohat bervoradi. Bu esa makruh bo'ladi. Shuning uchun og'iz yopishdan avval tishni bir marotaba chayqab olish kifoya qiladi. Misvoqni bemalol ro'zador holda ham ishlatish mumkin yoki zarurat tug'ilsa, ro'zador odam tish cho'tkasiga pasta qo'shmasdan, suvni o'zida yuvsada ham bo'ladi

**Suvdan foydalanish masalasida.** Ba'zilar ariqni ichiga tushib olib, suzib yuradi-da, ro'zam ochilmaydi deydi. Soylarda yoki basseynlarda suzganda og'iz va burundan suv kirib, ro'zaning ochilib ketishi ehtimoli juda yuqori. Bularдан saqlanish kerak. Lekin bo'yingacha bo'lgan chuqurlikdagi suvga tushib yursa, bunday holda ro'za ochilmaydi. Isib ketgan vaqtda boshdan suv quysa yoki dush qabul qilsa ham ro'za ochilmaydi.

**Quyidagi amallar orqali ro'za buziladi hamda qazo va kafforat vojib bo'ladi:**

- 1.Qasddan taom yeyish yoki ichish;
- 2.Uzrsiz dori-darmonlarni qabul qilish;
- 3.Qasddan jinsiy yaqinlik qilish;
- 4.Og'izga tushgan yomg'irni qasddan yutish;

- 5.Donni chaynagandan so‘ng bo‘lsa ham yutish;
- 6.Kunjut donini yutish;
- 7.Tuz iste’mol qilish;
- 8.Chekish;
- 9.Odatlanib qolgan insonni tuproq yeyishi. Agar o‘rganib qolmagan bo‘lsa, kafforat talab qilinmaydi;

Ko‘pchilik so‘raydigan ukol masalasida ulamolar yon tarafdan, ya’ni muskuldan ukol olsa, ro‘za ochilmaydi, degan. Lekin tomirdan qilingan ukollar, ayniqsa ozuqa bo‘lsa, ro‘zani buzishi aytildi. Turli kasalliklarga qarshi vaksinalar ham muskul orqali qilinadi va bunday holatlarda ham ro‘za ochilmaydi. Lekin, yana ham taqvo qilaman desa, turli ukollarni og‘iz ochilgan vaqtarda olgani afzal.

**Bu amallar orqali ro‘za buziladi va faqat qazo ro‘za tutish vojib bo‘ladi:**

- 1.Ro‘zani safarga chiqish, kasallik, hayz-nifos va aqldan ozish kabi sabablar bilan buzilsa;
- 2.Odatda tanavvul qilinmaydigan narsalar, masalan, qog‘oz va loy kabilarni iste’mol qilinsa;
- 3.Tosh, temir, oltin, kumush va boshqa qattiq jismlarni yutilsa;
- 4.Zo‘rlanganlik oqibatida yeb-ichilsa;
- 5.Hali tong otmadi deb o‘ylab yeb-ichish yoki jinsiy aloqa qilib qo‘yilsa-yu, aslida tong otib bo‘lgan bo‘lsa yohud kun botdi degan gumon bilan og‘izni ochib qo‘ysa-yu, buning aksi bo‘lib chiqsa;
- 6.Og‘iz yoki burunni chayishda ehtiyoitsizlik tufayli suvni ichkariga kiritib yuborsa;
- 7.Qasddan ko‘ngilni aynitish tufayli og‘izdan to‘lib qayd qilsa;
- 8.Qor yoki yomg‘ir og‘izga tushsa;
- 9.Tutunni qasddan hidlasa;
- 10.Tishlar orasida qolgan no‘xot va undan katta hajmdagi ovqat qoldig‘ini yutsa;
- 11.Ro‘zani unutib yeb yoki ichib qo‘ygach, endi ro‘zam ochilib ketdi degan gumon bilan tanavvulni davom ettirsa;
- 12.Tundan niyat qilmagani uchun ro‘zani buzsa;
- 13.Kun yarmidan keyin safarga chiqib, ro‘zani ochib yuborsa;
- 14.Niyat qilmay kun bo‘yi yemoq va ichmoqlardan tiyilib yursa;
- 15.Quloqqa tomizilgan yog‘ yoki suvning mazasini halqumida sezsa;
- 16.Burunga dori tomizsa;
- 17.Klizma qilsa;
- 18.Ayolini quchish yoki o‘pish tufayli maniy chiqsa;
- 19.Qorindagi yaraga qo‘yilgan dorini oshqozonga va boshdagи yaraga qo‘yilgan dorini dimog‘ga yetsa;

Agar ro‘zaning mashaqqati tanaga zargarli bo‘lmasa, uning mashaqqatini ko‘tarish ro‘zaning savobini ko‘paytiradi. Toqatdan tashqari holatlarda tananing haqqi oldinga chiqib qoladi. Ya’ni tanaga ortiqcha og‘irlik yo‘q – sabr qilasiz, savob olasiz. Lekin tanaga mashaqqat og‘irlashib ketganda, endi uning haqqini ado qilish – sovitish kerak. Bunday holatlarda qiyinchilikka targ‘ib va talab qilinmaydi. Boshqa masalalarda, ayollar uchun muhim bo‘lgan ovqatni tuzini ko‘rishda, agar ozgina ovqatni tilga tekkizib, ta’mini bilib olsa, tupurib yuborsa ro‘za ochilmaydi. Lekin olgan ovqati tomog‘iga ketib qolsa, ro‘zasi ochilib ketadi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Imom Buxoriy, "Sahih al-Buxoriy"
2. Imom Muslim, "Sahih Muslim"
3. Imom Navaviy, "Riyozus Solihin"